

31.ИО. – son bilan ro'yxatga olingan

“O‘zbekiston ipotekani qayta
moliyalashtirish kompaniyasi” AJ
Ijroiya organining
2025 - yil 13 - noyabrdagi
79/I - sonli buyrug‘iga 2-ilova

**Sifat sohasidagi siyosatni belgilovchi
NIZOM**

Toshkent 2025 y.

Mundarija

<i>1-bob. Umumiy qoidalar.....</i>	<i>3</i>
<i>2-bob. Sifat sohasidagi siyosat</i>	<i>3</i>
<i>3-bob. Majburiyatlar</i>	<i>4</i>
<i>4-bob. Yakunlovchi qoidalar</i>	<i>5</i>

Sifat sohasidagi siyosatni belgilovchi Nizom (keyingi o'rinlarda - Siyosat) "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatida (keyingi o'rinlarda - Kompaniya) ISO 9001:2015 xalqaro standarti talablariga muvofiq Sifat menejmenti tizimini (keyingi o'rinlarda - SMT) joriy etish, qo'llab-quvvatlash, samarali ishlashini ta'minlash va doimiy ravishda takomillashtirish tartib taomillarini belgilaydi.

Mazkur hujjat Kompaniyaning sifat siyosati, maqsadlari, jarayonlari, yo'riqnomalari va nazorat mexanizmlarini o'z ichiga olgan bo'lib, Kompaniya rahbariyati va xodimlariga sifatni boshqarish, jarayonlarni standartlarga muvofiq amalga oshirish hamda ularni doimiy ravishda yaxshilash uchun asosiy metodik hujjat hisoblanadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Siyosat Kompaniyaning SMT bo'yicha ustuvor yo'nalishlarini, majburiyatlarini va asosiy tamoyillarini belgilaydi. Mazkur Siyosat ISO 9001:2015 standartining 5.2-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Kompaniya ko'rsatayotgan xizmatlarni doimiy ravishda takomillashtirish va amaldagi qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilish borasidagi yondashuvini aks ettiradi.

2. Mazkur Siyosatning maqsadi Kompaniyaning ishtirokchi moliyaviy tashkilotlar (keyingi o'rinlarda - IMT) va boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik jarayonida amal qiladigan asosiy ustuvor yo'nalishlari hamda qadriyatlarini belgilashdan iborat. Shuningdek, Siyosat IMTlar va boshqa manfaatdor tomonlarning ehtiyoj va talablarini inobatga olgan holda Kompaniya ko'rsatayotgan xizmatlar va SMTni uzluksiz takomillashtirishga qaratilgan strategik yo'nalishlarni aniqlaydi.

3. Ushbu hujjat talablari Kompaniyaning SMT qamroviga kiruvchi barcha tarkibiy bo'linmalariga tatbiq etiladi.

4. Mazkur Siyosatda quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalanilgan:

Strategiya – Kompaniyaning uzoq muddatli maqsadlariga erishish yo'lini belgilovchi umumiy yo'nalish.

Sifat sohasidagi siyosat (siyosat) – Kompaniyaning sifatni ta'minlash, IMTlar ehtiyojini qondirish va tizimni takomillashtirishga doir niyat va yo'nalishlari.

Kompaniya rahbariyati (rahbariyat) – Kompaniya Ijroiya organi rahbari va uning o'rinbosarlari.

Manfaatdor tomon – qaror qabul qilishga yoki amalga oshirilayotgan faoliyatga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yoki ushbu qarorlar yoki faoliyat ularga ta'sir qiladigan yoxud o'zlari ta'sir qilinishi mumkin deb hisoblaydigan shaxs yoki tashkilot.

2-bob. Sifat sohasidagi siyosat

5. Mamlakatimiz uy-joy sektorini rivojlantirish, ipoteka kreditlarini taqdim etish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining barcha qatlamlari uchun bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-maydagi "Ipoteka krediti bozorini rivojlantirish va kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5715-sonli Farmoniga asosan "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan. Kompaniyaning vazifalarini, Ipoteka kreditlash va qayta moliyalashtirish sohasidagi ichki va tashqi omillarni

inobatga olgan holda, Kompaniya rahbariyati va xodimlarining sifat sohasida o'z oldiga qo'yilgan asosiy maqsadlari - IMTlar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishonchini qozonish va ushbu ishonchni doimiy saqlab qolishdir.

6. Kompaniya o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun:

bozor tamoyillari asosida IMTlariga aholining uy-joylarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun moliyaviy resurslarni taqdim etadi;

ipoteka kreditlash va qayta moliyalash sohasida, shu jumladan xorijiy ekspertlar va mutaxassislarni jalb qilish orqali uslubiy va normativ-huquqiy bazani ishlab chiqishda ishtirok etadi;

mahalliy va xalqaro kapital bozorlarida moliyaviy resurslarni, shu jumladan, mahalliy, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining qarz mablag'larini jalb qilish, keyinchalik ularni ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishga yo'naltiradi;

qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan ipoteka obligatsiyalarini chiqarishni tashkil etadi va ularni investorlar orasida joylashtiradi;

ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishga ko'maklashish, ipoteka bozorini rivojlantirishning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish, ipoteka krediti va ipoteka qimmatli qog'ozlar bozorida likvidlikni oshirishda ishtirok etadi va ushbu jarayon bilan bog'liq xavflarni boshqaradi.

7. Kompaniya faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Kompaniya rahbariyati quyidagilarni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi:

sifat menejmenti tizimi bo'yicha belgilangan barcha qonunchilik va normativ hujjatlar talablariga to'liq rioya qilish;

IMTlar va manfaatdor tomonlarning qonuniy talablarini bajarish;

sifat sohasidagi maqsadlar va vazifalarni belgilash;

moliyaviy va operatsion xavf-xatarlarni aniqlash va ularni minimallashtirish uchun tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini joriy etish;

sifat menejmenti tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish.

3-bob. Majburiyatlar

8. Kompaniyaning quyidagi xodimlari ushbu Siyosatning talablarini bajarish uchun javobgar hisoblanadi:

a) Kompaniya rahbariyati:

Kompaniya SMTga qo'yiladigan barcha tegishli talablarning bajarilishi;

sifat sohasidagi maqsad va vazifalarni belgilash;

Kompaniya faoliyatini, IMTlar fikr-mulohazalarini, qo'yilgan maqsadlarni, SMTning doimiy muvofiqligini muntazam tahlil qilish;

ushbu tahlillar asosida SMTni doimiy takomillashtirish, tuzatuvchi choralar ko'rish, sifat sohasidagi maqsad va vazifalarni belgilash;

SMTni Kompaniyaning barcha darajalarida tushuntirish va uni amalda qo'llash.

b) tarkibiy bo'linma rahbarlari:

o'z faoliyatida mazkur Siyosat talablariga rioya qilish, uni tarkibiy bo'linma xodimlari tomonidan tushunilishi va amaliy qo'llanilishini ta'minlash;

mehnat samaradorligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, xodimlarning malakasini doimiy ravishda oshirish va ularga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq xizmat darajasini oshirish uchun sharoit yaratish.

c) Kompaniyaning har bir xodimi:

mazkur Siyosatning strategik yo'nalishlarini tushunish va o'z faoliyatida amalga oshirish;

Kompaniya SMTga qo'yiladigan barcha tegishli talablarni bajarish;

ijodiy tashabbus ko'rsatish, SMTni doimiy takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish va ishlarni sifatli bajarishga xalaqit beruvchi har qanday sabab va holatlarni bartaraf etishga intilish.

4-bob. Yakuniy qoidalar

9. Mazkur Siyosat Kompaniya Ijroiya organi rahbari tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va bekor qilinmaguncha yoki qayta ko'rib chiqilmaguncha amal qiladi.

10. Mazkur Siyosatga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Kompaniya Ijroiya organi rahbari tomonidan tasdiqlangach kuchga kiradi va belgilangan muddatlarda barcha xodimlar va manfaatdor tomonlarga yetkaziladi.

11. Mazkur Siyosat qoidalarining bajarilishini Kompaniya Ijroiya organi rahbarining buyrug'i bilan tayinlangan mas'ul xodim nazorat qiladi.